## X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI

**Foyda.** Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yil yanvar-may oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida korxona va tashkilotlar tomonidan 196586,9 mln. so'm miqdorda yakuniy moliyaviy natija olindi.

Bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganimizda foyda 352889,3 mln.so'mga kamaygan yoki 35,8 foizni tashkil etdi.

**2023 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalari**

| | *Foyda, zarar (-), mln. so'm* | *2022 yil yanvar-mayga nisbatan, foizda* |
|---|---|---|
| **Jami** | **196586,0** | **35,8** |
| Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | -1049,4 | - |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 147190,8 | 33,0 |
| Elektr, gaz, bug' bilan ta'min-lash va havoni konditsiyalash | -70590,1 | - |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 20,8 | 86,9 |
| Qurilish | 2204,2 | 89,3 |
| Savdo | 64526,4 | 36,7 |
| Ta'lim sohasidagi | 69604,9 | 9,0 m. |
| Tashish va saqlash | 20915,8 | 4,6 m. |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1036,3 | 93,4 |
| Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar | 480,8 | 83,6 |
| Professional, ilmiy va texnik faoliyat | -44,6 | - |
| Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish | 3,3 | - |
| Boshqalar | -37713,2 | - |

2023 yil yanvar-may oylarida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foydaning asosiy o‘sishi “ O‘zsanoatqurilish materiallari uyushmasi” (76266,8 mln.so‘m), “O‘zbekneftegaz”AJ (53606,7 mln.so‘m), "Uzbekistan Airports" AJ (14464,5 mln.so‘m) ga to‘g‘ri keladi.

**Foydaning pasayishi.** Yirik tijorat korxonalari tomonidan foydaning pasayishi kuzatildi. Hududiy elektr tarmoqlari AJ 38751,0 mln.so‘mga to‘g‘ri keldi.

**2023 yil yanvar- may oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari**

| | *Foyda, zarar (-), mln. so‘m* | *2022 yil yanvar-mayga nisbatan, foizda* |
|---|---|---|
| **Buxoro viloyati** [1)] | **196586,0** | **35,8** |
| Buxoro sh. | 44402,5 | - |
| Kogon sh. | 1489,3 | 2,4 m. |
| *tumanlar* | | |
| Buxoro | -29704,2 | - |
| Vobkent | 4406,8 | 4,5 |
| Jondor | 471,7 | - |
| Kogon | 78878,0 | 46,4 |
| Olot | 17,6 | 24,4 |
| Peshko‘ | 25251,1 | 47,8 |
| Romitan | 11034,1 | 2,3 m. |
| Shofirkon | 343,4 | 62,1 |
| Qorako‘l | 5801,0 | 104,6 |
| Qorovulbozor | 55435,0 | 21,1 |
| G‘ijduvon | -1239,4 | - |

*[1)] Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalari, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.*

Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Kogon tumani 78878,0 mln. so‘m, Qorovulbozor tumani 55435,0 mln. so‘m, Buxoro shahri 44402,5 mln. so‘m, Peshko‘tumani 25251,1 mln.so‘m va Romitan tumaniga 11034,1 mln.so‘m to‘g‘ri keladi.

**Zararlar**. 2023 yil yanvar-may oylarida 18 ta korxona va tashkilotlar 122562,6 mln. so‘m zararga yo‘l qo‘ydi. Zararning asosiy qismi Hududiy elektr tarmoqlari AJ 38751,0 mln. so‘m (jami zararning 31,6 foizi), O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv trikotaj sanoati korxonalar uyushmasi 5090,3 mln. so‘m (jami zararning 4,1 foizi) va O'zdonmahsulot AK 1026,0 mln. so‘m (0,8 foiz) boshqa soha korxonalariga to‘g‘ri keladi.

**2023 yil yanvar- may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

| | *Korxonalar soni* | *Zarar summasi* | |
|---|---|---|---|
| | | *mln. so‘m* | *jamiga nisbatan, foizda* |
| **Jami** | **18** | **122562,6** | **100,0** |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 4 | 11117,0 | 9,1 |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’min-lash va havoni konditsiyalash | 3 | 70679,7 | 57,7 |
| Qurilish | 1 | 1574,0 | 1,3 |
| Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi,chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish | 2 | 36844,4 | 30,1 |
| Ta'lim | 2 | 29,5 | - |
| Chakana va ulgurji savdo motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash | 1 | 42,9 | - |
| Boshqalar | 5 | 2275,1 | 1,8 |

Zararlarning asosiy qismi suv bilan ta’minlash kanalizatsiya tizimi,chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish 36844,4 mln. so‘m (jami zararning 30,1 foizi), ishlab chiqaradigan sanoat 11117,0 mln. so‘m (9,1 foiz), elektr,gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash 70679,7 mln. so‘m (57,7 foiz), qurilish 1574,0 mln. so‘m (1,3 foiz), boshqalar 2347,5 mln. so‘m (1,8 foiz) korxonalari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2023 yil yanvar-may oylarida hududlar kesimida zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

| | *Korxonalar soni* | *Zarar ko‘rgan korxonalarning ulushi, foizda* | *Zarar summasi, mln. so‘m* |
|---|---|---|---|
| **Viloyat bo‘yicha** | **18** | **100,0** | **122562,8** |
| Buxoro shahri | 11 | 69,9 | 85663,8 |
| Kogon shahri | 1 | 0,9 | 1100,5 |
| Buxoro tumani | 1 | 24,3 | 29779 |
| Kogon tumani | 2 | 1,7 | 2052,9 |
| G‘ijduvon tumani | 2 | 3,2 | 3923,7 |
| Romitan tumani | 1 | - | 41,7 |

**Korxona va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzdorligi holati**[1)]

2023 yil 1 iyun holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 3458674,5 mln. so‘mni, shundan muddati o‘tgan 13160,7 mln. so‘m yoki jami qarzdorlikning 0,4 foizini tashkil qiladi. Muddati o‘tgan debitor qarzdorlik 2022 yil 1 iyunga nisbatan solishtirganimizda 53,4 foizini tashkil qiladi.

[1)] *Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalari, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.*

**2023 yil 1 iyun holatiga vazirlik va idoralarning debitor qarzdorligi**

*(jamiga nisbatan, foizda)*




Eng ko‘p debitor qarzdorlik “O‘zbekneftegaz” AJ korxonalari 1782871,5 mln. so‘m (viloyat bo‘yicha jami qarzdorlikdan 51,5 foiz), “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ 362279,6 mln. so‘m (10,5 foiz), O'zbekiston to'qimachilik va tikuv trikotaj uyushmasi 268552,7 mln. so‘m (7,8 foiz) kuzatilmoqda.

Iqtisodiyot tarmoqlari, hududlarda va idoralarda muddati o‘tgan qarzdorlikni tugatish bo‘yicha tizimli ishlar tashkillashtirilganligi natijasida muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning o‘sish sur’ati kamayib bormoqda.

**2023 yil 1 iyun holatiga hududlar kesimida korxona va tashkilotlarning debitor qarzdorligi**

| | Debitor qarzdorlik, mln. so'm | shundan muddati o'tgani | muddati o'tgan qarzdorlik ulushi, foizda |
|---|---|---|---|
| **Buxoro viloyati** [1)] | **3458674,5** | **13160,7** | **0,4** |
| Buxoro sh. | 733763,6 | 13160,7 | 1,8 |
| Kogon sh. | 80947,8 | - | - |
| *tumanlar* | | | |
| Buxoro | 65532,4 | - | - |
| Vobkent | 5629,3 | - | - |
| Jondor | 9301,7 | - | - |
| Kogon | 91097,2 | - | - |
| Olot | 8313,4 | - | - |
| Peshko' | 108511,9 | - | - |
| Romitan | 51017,6 | - | - |
| Shofirkon | 6338,6 | - | - |
| Qorako'l | 120645,6 | - | - |
| Qorovulbozor | 1914833,8 | - | - |
| G'ijduvon | 262741,6 | - | - |

[1)] *Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalari, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz*

**2023 yil 1 iyun holatiga vazirlik va idoralarning kreditor qarzdorligi**

*(jamiga nisbatan foizda)*




Eng ko‘p kreditor qarzdorlik “O‘zbekneftegaz” AJ 1722319,0 mln.so‘m (39,7 foiz), “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ 291292,0 mln.so‘m viloyat bo‘yicha jami kreditor qarzdorlikdan 6,7 foiz), O'zbekiston to'qimachilik va tikuv trikotaj uyushmasi 748309,7 mln.so‘m (17,2 foiz) kuzatildi.

Hududlar kesimida kreditor qarzdorlikning asosiy qismi Qorovulbozor (1769047,9 mln. so‘m), G‘ijduvon (1132358,2 mln. so‘m) tumanlari va Buxoro (737595,6 mln. so‘m) shahriga to‘g‘ri keladi.

Muddati o‘tgan kreditorlik qarzdorliklar 0,8 mln. so‘mni tashkil qiladi.

**2023 yil 1 iyun holatiga hududlar kesimida korxona va tashkilotlarning kreditor qarzdorligi**

| | Kreditor qarzdorlik, mln.so'm | shundan muddati o'tgani | Muddati o'tgan qarzdorlik ulushi, foizda |
|---|---|---|---|
| **Buxoro viloyati** [1)] | **4340810,1** | **0,8** | **-** |
| Buxoro sh. | 737595,7 | 0,8 | - |
| Kogon sh. | 257671,6 | - | - |
| *tumanlar* | | | |
| Buxoro | 17523,0 | - | - |
| Vobkent | 12668,1 | - | - |
| Jondor | 10785,3 | - | - |
| Kogon | 99375,9 | - | - |
| Olot | 91817,6 | - | - |
| Peshko' | 77068,2 | - | - |
| Romitan | 71682,8 | - | - |
| Shofirkon | 3821,5 | - | - |
| Qorako'l | 59394,3 | - | - |
| Qorovulbozor | 1769047,9 | - | - |
| G'ijduvon | 1132358,2 | - | - |

[1)] *Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalari, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.*

**Alohida xo'jalik boshqaruv organlarining debitor va kreditor qarzdorligi**

*mln. so'm*




**Xo'jalik boshqaruv organlarida jami kreditor qarzdorlikning debitorlik qarzdorlikka nisbatan quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi:**

| | Kreditor qarzdorlikning debitorlikdan oshishi | |
|---|---|---|
| | mln. so'm | Debitorga nisbatan, foizda |
| "O'zbekiston temir y o'llari" AJ | 56176,8 | 5,1 m. |
| Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi | 43708,8 | 4,2 m. |

Jami kreditor qarzdorlikning debitordan oshishi "O'zbekiston temir yo'llari" AJ 56176,8 mln. so'mga (5,1 marta ko'p), Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi 43708,7 mln.so'mga (4,2 marta ko'p) kuzatildi. Bu korxonaning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

## Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Daromad (foyda) solig‘i to‘lagunga qadar foyda (zarar)** – korxona va tashkilotlarning barcha xo‘jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettiradigan yakuniy moliyaviy natija. Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari), asosiy faoliyatning boshqa daromadlari, moliyaviy faoliyatning daromadlari va favqulodda foyda yig‘indisidan davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar va favqulodda xarajatlar chegirib tashlanadigan foydaning umumiy foydasini (zararini) ifodalaydi.

**Debitorlik qarzlar** – xaridorlar va buyurtmachilar, sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarining qarzlari, xodimlarga, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar, budjet va davlat maqsadli jamg‘armalariga soliqlar, yig‘imlar va sug‘urta bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari, muassislarning ustav fondidagi ulushlari bo‘yicha qarzi, xodimlarning boshqa operatsiyalar bo‘yicha qarzlari va boshqa debitorlik qarzlarini o‘z ichiga oladi.

**Kreditorlik qarzlar** – yetkazib beruvchilar va pudratchilar, sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarining qarzi, soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha muddati kechiktirilgan majburiyatlar, olingan avanslar, budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz, sug‘urta bo‘yicha qarz, davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz, ta’sischilarga qarzlar, mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qarzlar va boshqa kreditorlik qarzlarini o‘z ichiga oladi.

**Mahsulot (tovar, ish va xizmatlar)** – tayyor mahsulot, tovar, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar, shuningdek, sotilgan tovarlarning qaytishi, sotish va baholardan chegirmalar qo‘shimcha qiymat solig‘i hamda aksiz solig‘ini qo‘shgan holda.

**Muddati o‘tgan qarzlar** – qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda so‘ndirilmagan qarzning umumiy summasi.

**Aktiv** – ma’lum bir sanadagi tashkilot aktivlari tarkibi va qiymatini aks ettiruvchi buxgalteriya balansi (chap tomon).

**Passiv** – korxona mablag‘lari (majburiyatlari va kapitali) shakllanishining barcha manbalari yig‘indisining (o‘ng tomoni) qarama-qarshi qismi.